

**MEDICINE  
PROBLEMS**

**.uz**

**ISSN 3030-3133**

**TIBBIYOT FANLARINING  
DOLZARB MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES OF MEDICAL  
SCIENCES**



**N° 6 (3)**

**2025**



САЙТ: <https://medicineproblems.uz>  
ISSN: 3030-3133

**MEDICINEPROBLEMS.UZ**  
**TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB**  
**MASALALARI**

*№ 6 (3)-2025*

**TOPICAL ISSUES OF MEDICAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

ISANOVA SHOIRA TULQINOVNA- Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat tibbiyot universiteti

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *TIBBIYOT FANLARI*

Safarov Zafar Fayzullayevich –tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Xakimov Murod Shavkatovich –tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Mavlanev Alimbay – tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Ergashev Nasriddin Shamsiddinovich - tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent pediatriya instituti;

Abdullayeva Nargiza Nurmamatovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Djurabekova Aziza Taxirovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Xaydarova Dildora Kadirovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Ruziboyev Sanjar Abdusalomovich- tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Sattarov Oybek Toxirovich- tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Niyozov Shuxrat Tashmirovich - tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Shomurodova Dilnoza Salimovna - tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Tavasharov Bahodir Nazarovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Xalmetova Feruza Iskandarovna – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

G'aybiyev Akmaljon Axmadjonovich - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Qo'ziyev Otabek Juraqulovich – tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Ergasheva Munisa Yakubovna - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Ollanova Shaxnoza Sirlibayevna – tibbiyot fanlari nomzodi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Safarov Zafar Fayzullayevich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Xayitov Ilxom Bahodirovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Alimov Suxrob Usmonovich- tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Fozilov Uktam Abdurazzokovich - tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent, Buxoro davlat tibbiyot instituti;

Raximov Oybek Umarovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent pediatriya instituti;

Sattarov Inayat Saparbayevich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Abidov O'tkir O'ktamovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Buxoro davlat tibbiyot instituti;

Amonova Zaxro Qaxramon qizi - tibbiyot fanlari nomzodi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti.

### *FARMATSEVTIKA FANLARI*

Zulfikariyeva Dilnoza Alisherovna - farmatsevtika fanlari doktori (DSc), professor, Toshkent farmatsevtika instituti;

Toshpo‘latova Azizaxon Dilshodovna - farmatsevtika fanlari doktori (DSc), professor, Toshkent farmatsevtika instituti;

Xusainova Rayxona Ashrafovna - farmatsevtika fanlari doktori (DSc), dotsent, Toshkent farmatsevtika instituti;

Maksudova Firuza Xurshidovna farmatsevtika fanlari doktori (DSc), dotsent, Toshkent farmatsevtika instituti;

Ziyamuxamedova Munojot Mirgiyasovna - farmatsevtika fanlari doktori, Toshkent farmatsevtika instituti, dotsent v.b.;

Rizayeva Nilufar Muxutdinovna – farmatsevtika fanlari nomzodi, dotsent Toshkent farmatsevtika instituti;

---

**TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB**

**MASALALARI** elektron jurnali 02.03.2023-yilda 132099-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati.

**TAHRIRIYAT MANZILI:**

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB MASALALARI  
3-jild, 6- son (Oktyabr, 2025). – 34 bet.

## MUNDARIJA

|  |       |
|--|-------|
| <i>Kurbonov Behzod, Arnapolskaya Dina</i><br>O'ZBEKISTONLIK SPORTCHI VA HARBIY XIZMATCHILARNING<br>YURAK-QON TOMIR TIZIMINING MOSLASHUVCHANLIGI: XALQARO STANDARTLAR<br>BILAN SOLISHTIRMA TAHLIL ..... | 5-8   |
| <i>Sultanov Safronbek</i><br>ARTERIAL GIPERTENZIYALI BEMORLARDA NEFROPATIYANING RIVOJLANISHIGA<br>METOBOLIK VA GEMODINAMIK OMILLAR TA'SIRI .....   | 9-13  |
| <i>Nazarova Nigina</i><br>THE ROLE OF APOLIPOPROTEIN E IN ATHEROSCLEROTIC RENAL ARTERY DISEASE ....  | 14-19 |
| <i>Madazimova Dilrux</i><br>SURUNKALI BUYRAK KASALLIGI BO'LGAN COVID-19 INFEKSIYASINI O'TKAZGAN<br>BEMORLARDA LIPID SPEKTORI KO'RSATKICHLARINING TAHLILI .....   | 20-23 |
| <i>Shagzatova Barno, Zakirova Feruza, Axmedova Feruza</i><br>YOD TANQISLIK HOLATLARI VA QALQONSIMON BEZ KASALLIKLARINING INSON<br>SALOMATLIGIDA AHAMIYATI .....  | 24-29 |
| <i>Yuldashov Ilhom, Solibayeva Noila</i><br>NAMANGAN VILOYATI AHOLISIGA IXTISOSLASHTIRILGAN ALLERGOLOGIK TIBBIY-<br>PROFILAKTIKA YORDAMINI TASHKIL ETISH .....   | 30-33 |

## NAMANGAN VILOYATI AHOLISIGA IXTISOSLASHTIRILGAN ALLERGOLOGIK TIBBIY-PROFILAKTIKA YORDAMINI TASHKIL

**Yuldashov Ilhom Ro'ziyevich**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

**Solibayeva Noila Otamirza qizi**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Namangan viloyatining turli iqlim va geografik hududlarida yashovchi, allergik patologiya tashhisi qo'yilgan bolalarda klinik va immunologik xususiyatlarini inobatga olgan holda BA bilan kasallangan bemorlarga birlamchi profilaktika choralarini optimallashtirish va viloyat aholisiga ixtisoslashtirilgan allergologik tibbiy-profilaktika yordamini tashkil etish dolzarbligi yoritilgan.

**Kalit so'zlari:** allergiya, bolalar, profilaktika, ta'lim dasturlari.

## ORGANIZATION OF SPECIALIZED ALLERGICAL MEDICAL AND PROPHYLAXIS CARE FOR THE POPULATION OF NAMANGAN REGION

**Yuldashov Ilhom Ro'ziyevich**

Tashkent State Medical University

**Solibayeva Noila Otamirza qizi**

Tashkent State Medical University

**Annotation.** This article discusses the relevance of optimizing primary preventive measures for patients with BA, taking into account the clinical and immunological characteristics of children diagnosed with allergic pathology living in different climatic and geographical regions of Namangan region, and organizing specialized allergological medical and preventive care for the population of the region.

**Keywords:** allergy, children, prevention, educational programs.

DOI: <https://doi.org/10.47390/Med-pro/v3i6y2025/N06>

**Dolzarbligi.** Aholining salomatligi atrof-muhit, ijtimoiy-iqtisodiy, turmush tarzi kabi omillarning birlashgan ko'p omilli ta'siri ostida shakllanadi, bunda JSSTning bahosiga ko'ra atrof-muhit omillarining hissasi 20-25%ni tashkil etadi, bu esa ekologiyaga bog'liq kasalliklarning keng tarqalishi va o'sishiga olib keladi [10].

Bugungi kunda, JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 262 millionga yaqin astma bilan kasallangan bemorlar mavjud: turli mamlakatlarda 4 dan 10 foizigacha aholi astma kasalligidan aziyat chekadilar.

Astmaning tarqalish darajasi urbanizatsiya sharoitida bino, xonalarda va atmosferada havoning ifloslanishi tufayli ortib boradi.

Ushbu kasallikning tarqalish darajasi kasalliklarni nazorat qilish va profilaktikasi markazi (AQSh) ma'lumotlariga ko'ra, turli yosh guruhlarida sezilarli tebranishlar bilan o'rtacha 7% ni tashkil qiladi: 0-4 yoshda 2,6% dan 12-14 yoshda- 10,3% gacha [10].

Markazning ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda so'nggi 5 yilda bronxial astmaning og'ir klinik shakli bilan kasallangan bemorlar soni 0,7 %dan 17,5 %ga oshgan. Respublika allergologiya markaziga allergik kasalliklar bilan kasallangan bemorlar umumiy sonining 42% dan 65% gachasi bronxial astma bilan kasallangan bemorlar murojaat qiladi [7,8].

So'nggi ilmiy ma'lumotlar uning rivojlanishida atrof-muhit omillarining tutgan o'rnini [1,3], xususan, ekologik iqlim sharoitining ta'sirini tasdiqlaydi.

So'nggi yillarda dunyoning turli mamlakatlarida o'tkazilgan epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, BA kasalligi iqlim va geografik ko'rsatkichlarga, shuningdek, shahar va qishloq yashash joylariga bog'liq ravishda mamlakatlar va bir mamlakatning alohida hududlari o'rtasida sezilarli darajada farq qiladi [2].

Bizning mamlakatimizda aholiga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish, aholi o'rtasida allergik kasalliklarning shakllanishi va rivojlanishining oldini olish, ushbu kasalliklarning o'sish tendensiyasini kamaytirish, tibbiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ushbu holatlar paydo bo'lmasligi uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Odatda, birlamchi, ikkilamchi va uchinchi darajali profilaktika choralari ajratiladi va ular turli yo'nalishga ega, biroq ularning barchasi bir maqsadga qaratilgan.

Birlamchi profilaktika xavf guruhiga mansub va allergik sensibilizatsiyaga (IgE ga antitelalarning yuqori shakllanishi) ega bo'lgan odamlarga qaratilgan.

Ma'lumki, bolada sezgi unga homiladorlikning ikkinchi trimestrida rivojlanishi mumkin.

Shuning uchun antenatal davrda hali tug'ilmagan bolada allergiyaning oldini olish – bu homiladorlikning patologik kechishining oldini olishdir.

Plasentaning to'siq funksiyasining buzilishi allergenlarning homila atrofidagi suvga kirib borishiga olib kelib, hatto ularning kichik konsentratsiyasi ham homilada reaktiv immun reaksiyasini rivojlanishi uchun hisoblanadi.

Birlamchi profilaktika choralari ichida tamaki tutunining ta'sirini istisno qilish maqsadga muvofiq bo'lib, uning ta'siri bolaning ona qornidagi va tug'ruqdan keyingi davrda bronxial obstruksiya bilan kechadigan kasalliklarning rivojlanishi va kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkilamchi profilaktika ta'sirchan bolalarda allergik kasallikning namoyon bo'lishining yoki uning og'ir kechishining oldini olishga qaratilgan va quyidagi choralarni o'z ichiga oladi:

- atrof-muhit nazorati, birinchi navbatda, bolani to'g'ri oziqlantirish ustidan (ayniqsa, ona suti bilan emizishdan sun'iy oziqlantirishga o'tkazishda);
- allergiyaning sababchisi sifatida nafas olish yo'llari (respirator) infeksiyalarining oldini olish;
- ta'lim dasturlari.

Uchinchi darajali profilaktikaning maqsadi - allergik kasalliklar ustidan nazoratni yaxshilash va kasallikning salbiy rivojlanishining xavf omillarini bartaraf etish orqali dori terapiyasiga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishdir.

**Materiallar va uslublar.** Ota-onalar bilan o'tkazilgan so'rov tahlili shuni ko'rsatdiki, masalan, bronxial astma bilan og'irgan bemorlar uzoq vaqt davomida o'tkir obstruktiv bronxit, takroriy obstruktiv bronxit, laringit va boshqa shu kabi kasalliklardan poliklinikalar sharoitida davolanadilar.

Viloyat poliklinikasi yoki diagnostika-konsultatsiya markaziga murojaat qilish vaqtida, bemorlar agar mutaxassis qabuliga yozilmagan bo'lsalar, allergolog shifokorning qabulini uzoq vaqt kutishlariga to'g'ri keladi va qabuliga kira olmaydilar.

Allergolog ko'rigi, odatda, bir necha soatdan 2-3 kungacha bo'lgan ma'lum vaqtni talab qiladi va bunda och qoringa tekshirishni talab qiladigan diagnostika choralari (masalan, nafas olish funksiyasini baholash, o'ziga xos IgE ni aniqlash, immunogramma) o'tkazilmaydi, natijada bolalar uy sharoitida tekshirilmaydi.

Qishloq aholisi har kuni shifokordan maslahat olish uchun shaharga borish imkoniga ega emaslar (ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli past va moliyaviy qiyinchiliklari bo'lgan oilalar). Ushbu oilalardagi bolalarning aksariyati uzoq vaqt davomida shifokorning e'tiboridan chetda qoladilar, salbutamol (yoki bepul dorilar) bilan bo'g'ilish xurujini mustaqil ravishda to'xtatadilar va ko'krak qafasining murakkab deformatsiyasi bilan og'ir bronxial astmaning rivojlanish xavfiga duchor bo'ladilar.

**Natijalar va ularning muhokamasi.** Tadqiqotimiz natijalarining ko'rsatishicha, qishloq aholisi tor doiradagi ixtisoslashgan mutaxassislarning tibbiy xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega emaslar.

Qishloq aholisidan farqli ravishda, shahar aholisi o'z farzandlarini poliklinikada hamda shifoxonada tekshirtirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lib, bu gipodiagnostika indeksining pastligida namoyon bo'ladi.

Allergologlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, mutaxassislar kasalxonada allergenlar yo'qligini qayd etadilar va shu tufayli allergoprobalar o'tkazilmaydi, xuddi shu sababga ko'ra bolalar keyingi 3 yil davomida maxsus immunoterapiyani olmaydilar.

Bronxial astma bilan og'rigan barcha bolalar uchun kompyuter dasturi ambulatoriya sharoitida amalga oshiriladi, ammo shahar bolalar shifoxonasining allergologiya bo'limida spirograf yo'qligi sababli u o'tkazilmaydi.

Mutaxassislar, shuningdek, nebulayzer terapiyasining yo'qligi, separatorlarning yetarli emasligi, antileykotrien dori preparatlari, maishiy allergenlarning yo'qligi, shuningdek, bronxial astma diagnostikasi va davolash bo'yicha hisobotlarda kasalxonada yotoq-kunlarining qisqarganini ta'kidladilar.

Poliklinikalarda bronxial astma bilan og'rigan bolalarni kuzatish va aniqlashning mavjud tizimi har doim ham ushbu kasallikning erta diagnostikasini ta'minlamaydi va bu uni prognoz qilishga yanada salbiy ta'sir qiladi. Ma'lumki, bronxial astma bilan og'rigan yuqori xavf guruhi bolalariga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam samaradorligini oshirish kasallikni prognoz qilish va uning kechishiga ta'sir qiladi.

Hozirgi vaqtda rivojlanishi bronxial astmani erta aniqlashga yordam beradigan bir nechta ustuvor yo'nalishlarni ajratish mumkin bo'lib, bu o'z navbatida bolani o'z vaqtida va adekvat davolashni ta'minlaydi.

Kasalxonada yotish davrini 14 kungacha qisqartirilishi, shuningdek bronxial astmaning og'irligi darajasiga qarab diagnostika va davolash protokollarini ishlab chiqilishi dori vositalarini sotib olish uchun iqtisodiy xarajatlarini minimallashtirish imkonini beradi.

**Xulosalar.** Boshqa tavsiyalar qatorida quyidagilarni ta'kidlash kerak: allergologiya bo'limini tashqi nafas olish funksiyasini nazorat qiluvchi tibbiy asbob-uskunalar (spirograf, pikfloumetrlar, speyserlar) bilan jihozlash, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni ko'rsatish uchun tuman poliklinikalari xodimlari shtatiga allergolog lavozimini kiritish, spesifik

allergenlar mahsulotini oshirish uchun qishloq joylarda bolalarda allergik kasalliklarni diagnostika qilish va davolash uchun uchastka allergolog shifokorlarni yaratish zarur

### Адабиётлар/Литература/References

1. Айдарова Н.П., Разикова И.С., Аликулова Д.Я., Байбекова В.Ф. Практическое значение деятельности “Астма-школ” в рамках улучшения качества жизни больных с бронхиальной астмой // “Проблемы медицины и биологии”. Тезислар тўплами. Талабалар ва ёш олимларнинг Халқаро илмий-амалий анжумани материаллари. - Кемерово, 2019. 181-183 б.
2. Арифов С.С., Косимов К.К., Далиев А.Ф. Распространенность, факторы риска развития, ключевые аспекты патогенеза аллергического ринита // Болалар хирургияси ва анестезиологияси-реаниматологиясида замонавий ташхисот ва даволаш технологиялари илмий-амалий анжумани. Тезислар тўплами. –Андижон, 2014, апрель. 234-235 б.
3. Ахмедова М.М. Особенности бронхиальной астмы (БА) у детей, проживающих в условиях города Ферганы // Актуальные проблемы заболеваний органов дыхания у детей: Тезислар тўплами. – Тошкент, 2015. 45-46 б.
4. Бокиджонов Г.К. Джураев М.Н. Распространенность поллинозов у взрослого населения в северном Таджикистане // Здравоохранение Таджикистана. – 2014. – № 4 (323). 5– 10 б.
5. Вахнина О.А. Пыльцевая аллергия в Республике Коми: клинико-эпидемиологическое исследование: автореф. дис. канд. мед. наук: – Москва, 2016. 22 б.
6. Миррахимова М.Х., Халматова Б.Т., Ташматова Г.А. Распространенность и факторы риска бронхиальной астмы у детей, проживающих в промышленных районах Ташкентской области.// Вестник Ташкентской медицинской академии. –Ташкент, 2018.-№4. 91-95 б.
7. Разикова И.С.,Айдарова Н.П., Ахмедов Х.С.Аллергик касалликларни ташхислаш, даволаш ва олдини олиш. //Клиник протокол.Ташкент.2018. – 27б.
8. Юлдашев И.Р., Рўзиев Ш.И. Региональные особенности распространения аллергии микроклещевой этиологии у детей // Педиатрия. -2019. - № 3. – илова №1. - 154-156 б.
9. Yamazaki S. Exposure to air pollution and meteorological factors associated with children's primary care visits at night due to asthma attack: case-crossover design for 3-year pooled patients // BMJ. Open. - 2015. - Vol. 5, N4.
10. Григорьев Ю.И. ҳаммуал, 2010, 2014; [Abuduwailil J](#) et al, 2015, [Tsabouri S](#) et al, 2013.

**MEDICINEPROBLEMS.UZ-**  
**TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB**  
**MASALALARI**

*№ 6 (3)-2025*

**TOPICAL ISSUES OF MEDICAL SCIENCES**

**TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB  
MASALALARI** elektron jurnali 02.03.2023-  
yilda 132099-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.  
**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

**TAHRIRIYAT MANZILI:**  
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik  
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron  
manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)